BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH VOSITALARI

Shodmonov Furqat Abdimumin o’g’li
Kattaqo’rg’on davlat pedagogika institute assistenti
furqateko@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish va uni takomillashtirish vositalari tahlil qilinadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar hamda o‘quv muhitining ekologik komponenti o‘quvchilarning atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, boshlang‘ich ta’lim, barqaror rivojlanish, interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, ekologik tarbiya.*

Kirish. Atrof-muhitning tobora ifloslanib borishi, global iqlim o‘zgarishlari va biologik xilma-xillikning kamayishi insoniyatdan ekologik mas’uliyatni oshirishni talab qilmoqda. Bu jarayonda ekologik madaniyatning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, ekologik ong va ekologik mas’uliyatning ilk bosqichda – maktab davridayoq shakllanishi ekologik muammolarni bartaraf etishda uzoq muddatli ijobiy natijalar beradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish va uni takomillashtirish vositalarini aniqlash dolzarb ilmiy-ammaliy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Ekologik madaniyat tushunchasi va uning komponentlarini quyida ko’rib chiqamiz. Ekologik madaniyat – bu insonning tabiatga nisbatan ongli munosabati, ekologik bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va amaliy faoliyatlar yig‘indisidir. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida bu madaniyat quyidagi komponentlar orqali shakllanadi:

imrconf.com

Ekologik bilimlar: o‘quvchilarning tabiat, ekologik muammolar, tabiat qonuniyatlari to‘g‘risidagi tushunchalari hisoblanadi va ularda tabiat haqidagi tushunchalarni, uni asrab avaylash hamda o’simlik va hayvonlarni muhofaza qilish haqida ma’lumotlar kiradi.

Ekologik hissiyotlar: insonning tabiatga nisbatan estetik, axloqiy va emotsional munosabatlarining majmuasidir. Boshqacha aytganda, bu tabiatga mehr, hayrat, hurmat, javobgarlik kabi his-tuyg‘ular orqali ifodalanadigan ichki kechinmalar yig‘indisidir. Ekologik hissiyotlarning asosiy turlari sifatida estetik hissiyotlar, axloqiy hissiyotlar, mas’uliyat hissi kabilarni misol keltirishimiz mumkin. Ekologik hissiyotlar ekologik madaniyatning asosiy qismini tashkil qiladi. Ular orqali bola tabiatga nafaqat bilim, balki yurak ko‘zi bilan qarashni o‘rganadi. Bu esa kelajakda ongli, ekologik jihatdan mas’uliyatli fuqaro bo‘lib yetishishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ekologik xulq-atvor: insonning atrof-muhitga ongli, mas’uliyatli, ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishini ifodalovchi ijtimoiy-psixologik va axloqiy faoliyatlar tizimidir. U insonning ekologik bilimlari, hissiyotlari va qadriyatlariga asoslanadi hamda kundalik hayotdagi amaliy harakatlarda namoyon bo‘ladi. Onglilik, mas’uliyat, barqarorlik hamda faollik ekologik xulq atvorning asosini tashkil etadi va bolalarni tabiatda o’zini tuta bilish hamda turli vaziyatlardan chiq olish ko’nikmalarini shakllantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ekologik xulq-atvorni rivojlantirish uchun qog‘oz, plastik, oziq-ovqat chiqindilarini alohidalash, daraxt, gul, o‘simliklarni sug‘orish va parvarish qilish kabi amaliy ishlarni hamda suv, elektr, issiqlik kabi resurslarni tejash, hayvonlarga nisbatan mehribon va ehtiyotkor bo‘lish, atrof-muhitni ifloslantirmaslikka harakat qilishdek munosabat-larni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Boshlang‘ich sinfda ekologik madaniyatni shakllantirishda ta’limiy vositalar, yangi darslik va o’quv qo’llanmalar hamda bolalar uchuk ekologik ertak va ilmiy-ommabop kitoblarni o’rni ham nihoyatda katta. Lekin pedagogik

imrconf.com

texnologiyalar va axborot komunikatsiya vositalaring ham o’z o’rni bor. Bularga, interfaol metodlar, ekologik loyiha ishi va amaliy darslar, multimediyali vositalar hamda mobil ilovalar qolaversa ekologik muammolar tasvirlangan mobil o’yinlarni ham misol keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirishda maktab muhitining o‘zi ham muhim rol o‘ynaydi. “Yashil maktab” tamoyiliga asoslangan ta’lim muassasalari o‘quvchilarning ekologik qadriyatlarini mustahkamlashda samarali maydonga aylanishi mumkin. Masalan, maktab hududida chiqindilarni ajratib tashlash tizimi joriy etilishi, o‘quvchilarning darsdan tashqari ekologik aksiyalarda faol ishtiroki, energiya va suvdan oqilona foydalanish kabi amaliy harakatlar orqali ularning ekologik madaniyatni real hayotda namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, oilaviy muhit ham ekologik tarbiyaning ajralmas bo‘lagidir. Ota-onalar tomonidan namuna bo‘lish, uyda ekologik gigiyena qoidalariga amal qilish, tabiatga sayohatlar tashkil etish va bolalarni ekofaollikka undash orqali ekologik madaniyatning mustahkam poydevori qo‘yiladi. Shu boisdan ham maktab-oila hamkorligini kuchaytirish, ekologik tarbiyaviy ishlarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Ekologik tarbiyada milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq ijodiyotiga asoslangan yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, qadimiy xalq donishmandliklarida, maqollarda, dostonlarda tabiatga hurmat, uni asrash g‘oyalari keng tarqalgan bo‘lib, ularni o‘quvchilar ongiga singdirish orqali ekologik ongni milliy g‘urur bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

Xulosa. Ekologik madaniyatni shakllantirish — bu yagona dars yoki kampaniya bilan cheklanmaydigan, balki izchil, tizimli va ko‘p bosqichli tarbiyaviy jarayondir. Boshlang‘ich ta’lim bu jarayonning poydevorini tashkil etadi. Shuning uchun har bir pedagog o‘z darslarida ekologik komponentlarga alohida e’tibor qaratmog‘i lozim. Ekologik bilimlar, hissiyotlar va xulq-atvorni uyg‘unlashtirgan holda, interfaol metodlar, amaliy mashg‘ulotlar, ekologik

imrconf.com

loyihalar, AKT imkoniyatlari, oilaviy hamkorlik va milliy qadriyatlarni inobatda olish zarur.

Bunday yondashuv orqali biz nafaqat bilimli, balki yuragida tabiatga mehr, javobgarlik va g‘amxo‘rlik singdirilgan yangi avlodni tarbiyalaymiz. Zero, tabiatni asrashga intilgan har bir o‘quvchi — bu barqaror va yashil kelajakning kafolatidir.

Boshich ta'lim jarayonida o'quvchilarda ekologik vaziyatni kuzatish – bu milliy ta'limiy, balki strategik ijtimoiy-ma'naviy vazifadir. Ekologik madaniaytni tarkib toptirishda uning tarkibiy qismlari bo'lgan ekologik bilimlar, hissiyotlar va xulq-atvor bir butun tizim sifatida qaralishi kerak. Bu tizimning har bir elementi o'zaro bog'liq bo'lib, bolani tabiatga ongli, g’amxo’r va mas’uliyatli yondashishga tayyorlaydi.

Shuni tan olish kerakki, ekologik madaniyatni faqat dars jarayonida emas, balki maktab ma’naviy muhiti, oila, jamiyat va ijtimoiy axborot orqali ham shakllantirish mumkin. Bu esa ko'p yordamni, uzviylikni va kuchlilikni talab qiladi. Boshlang‘ich sinfda ekologik madaniyatni shakllantirish va takomillashtirish tizimli yondashuvni, zamonaviy vositalardan kompleks foydalanishni, pedagogning ekologik savodxonligini talab qiladi. O‘quvchilarda ekologik ongni barvaqt shakllantirish orqali biz ekologik jihatdan mas’uliyatli, tabiatga mehr bilan qaraydigan yangi avlodni tarbiyalaymiz. Bu esa barqaror rivojlanish konsepsiyasining amaliy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Xudoyberdiyeva G’. “Ekologik tarbiya nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent, 2021.

2. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. – Paris, 2017.

3. Goziev E.G’. “Pedagogika asoslari”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2020.

4. Isroilova D. “Boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlar”. – Samarqand, 2019.

imrconf.com

5. Qodirova N. “Boshlang‘ich sinfda ekologik tarbiya samaradorligini oshirish yo‘llari”. – Ilmiy maqola. “Pedagogik izlanishlar” jurnali, 2023.

6. Shodmonov F.. Globallashuv sharoitida ekologik ta’limni o‘qitishning muammolari. “Boshlang’ich ta’limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi.

7. Shodmonov F.. Sun’iy intellekt orqali ekologik muammolarni oldini olish va ekologik madaniyatni shakllantirish. «Ta‘limda sun‘iy intellektning roli» mavzusidagi Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi: materiallar to‘plami. Kattaqo‘rg‘on,

imrconf.com